



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 376 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrorova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish.....	101
Karimova Nargiza Raximovna	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot.....	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari.....	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi.....	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish.....	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida).....	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari.....	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari.....	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati.....	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Serali qizi	
Nabi Jaloliddin ijodida tarixiy tafakkur va zamonaviylik uyg'unligi	201
Matchanova Mastura Baxrom qizi	
Geometriyani o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish	205
Sultonova Dilrabo Yusuf qizi	
ESP ta'limida syllabus design va uning arxitektura-qurilish yo'nalishlaridagi ahamiyati.....	210
Xayitova Dilnoza Bahtiyorovna	
Цифровизация и глобализация как факторы трансформации французского языка в XXI веке	214
Давронова Зульфия Бобоевна	
Key Highlights of a Dialect for Extraordinary Purposes.....	219
Berdiyeva Mekhriniso Kholmamatovna	
Transformatsion liderning maktabgacha ta'lim tizimidagi strategik va pedagogik ahamiyati.....	223
Mustafoev Maqsudbek Olim o'g'li	

Milliy komponentlarga asoslangan tasviriy san'at ta'limining asosiy metodik tamoyillari.....	227
Baltayeva Xalima Toraboyevna	
Arxitektura ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli	231
Abduvosiqova Dilafruz Djalaliddinova	
Bo'lajak tarix o'qituvchisi pedagogik-psixologik tayyorgarligining nazariy-konseptual modeli	236
Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna	
The Impact of the Flipped Classroom Model in Uzbek Secondary Schools: Participation and Engagement	240
Khamidova Shabnam Gulakhmadovna	
Sharq va G'arb pedagogik an'analarida sun'iy intellekt vositasida tarbiya jarayonini transformatsiyalash: qiyosiy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	244
Jamolova (G'anijonova) Mushtariybegim Bobirjon qizi	
Sport tayyorgarligi tizimida trenerlar faoliyatining mazmuni, tuzilishi va zamonaviy talablari	249
Ismailova Dildora Qudratullayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni son sanoqqa o'rgatishda didaktik vizual vositalarning turlari va ularning pedagogik ahamiyati.....	255
Kushakova Gulnora Egamqulovna, Valiyeva Sabina Shavkat qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv-integrativ mobilligi, mohiyati va tarkibiy komponentlari.....	262
Mirzayeva Kamola Ikrom qizi	
Kursantlarda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning psixologik-pedagogik ahamiyati.....	267
Shermatova Nazokat Safarovna	
PISA topshiriqlari asosida 5-sinf o'quvchilarining ilmiy tadqiqotlarni loyihalash kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	271
Zulayxo Mamajanova	
Лингводидактические основы развития письменной речи студентов на материале жанра травелога	275
Тахирова Маъсуда Абдужаббор кизи, Хазраткулова Мохира Азизбековна	
Migrant oilalarning bola psixikasiga ta'siri	280
Baxtiyor Odilovich Saidov	
Трансформация рекламного дискурса в социальных сетях.....	284
Икрамова Мунира Маруфжановна	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda web-platformalardan foydalanish modeli.....	289
Akramova Mohinabonu Mirg'olib qizi	
Teaching Translation Equivalence Through Comparative Analysis of Simultaneous and Written Translation: An Experimental Study in Uzbek-English Translation Education.....	294
Iskandarova Risolat Ravshanbekovna	
Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning ahamiyati va dolzarbligi	299
Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich	
Anorganik kimyoda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlil natijalari.....	304
Boboyarova Nilufar Saydullayevna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutq nuqsonlarini qo'g'irchoq teatri asosida bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish	310
Xasanbayeva Gulbahor Nasrullayevna, Arslanova Madina Mansurovna	
Musiqqa o'qituvchilarida cholg'u ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (fortepiano asarlari misolida)	313
Rahimberganova Zuhra Shuxrat qizi	
Yosh xodimlarni kasbga moslashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va ahamiyati	317
Adilov Baxadir Tanatarovich	



Bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari	321
Atamuratov Dilshod	
Концептуальные основы развития навыков академического вокального исполнительства у студентов образовательных программ по направлению "Музыкальное образование"	325
Ахмедова Чарос Ильхомовна	
Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	332
Bekchanova Sabohat Matrasulovna	
Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlari kreativ salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari	338
G'aniyeva Zarina Itolmas qizi	
Maktabgacha ta'limda inkluziv muhitni shakllantirish: mavjud muammolar va innovatsion pedagogik yechimlar	342
Gulyamova Aziza Otabek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	346
Komiljonova Mohinur Allabergan qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning global kommunikativ motivatsiyasini shakllantirish: pedagogik yondashuvlar	350
Qoravoyeva Shoir Zafarjon qizi	
Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari	353
Shixova Inobat Omonovna	
Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlashda xorij tajribasi	358
Usmanova Shaxnoza Baxodirovna	
Arab tilidagi akademik matnlarni o'qib tushinishda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik imkoniyatlari	363
Xalilova Hilola Sharopovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari	368
Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi	
Kognitiv yondashuv asosida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni o'qitish metodikasi ...	372
Boboqulova Munisa Shavkat qizi	

MAKTABGACHA TA'LIMDA INKLYUZIV MUHITNI SHAKLLANTIRISH: MAVJUD MUAMMOLAR VA INNOVATSION PEDAGOGIK YECHIMLAR

Gulyamova Aziza Otabek qizi

Qori Niyoziy nomidagi TPMI,

“Inklyuziv ta’lim-tarbiya metodikasi” bo’limi, katta ilmiy xodim (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik, psixologik va tashkiliy jihatlarini tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’limning zamonaviy konsepsiyasi barcha bolalarning, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan bolalarning teng huquqli ishtiroki, rivojlanishi va ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlashni nazarda tutadi. Tadqiqotda maktabgacha ta’limda inklyuziv muhitni tashkil etishda uchraydigan asosiy muammolar: pedagoglarning inklyuziv kompetensiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi, ta’lim va rivojlantiruvchi muhitning moslashtirilmaganligi, individual yondashuvni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar, ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlikning yetarli emasligi hamda bolalar o’rtasidagi ijtimoiy moslashuv muammolari yoritilgan. Shuningdek, Universal Design for Learning, individual rivojlanish xaritasi, ijtimoiy-emotsional ta’lim, assistiv texnologiyalar, kooperativ o’yinlar va multidisiplinar hamkorlik kabi innovatsion yondashuvlarning imkoniyatlari ochib berilgan. Maktabgacha yosh davrida erta aniqlash va o’z vaqtida pedagogik qo’llab-quvvatlash bolaning keyingi ta’lim jarayonidagi ishtiroki va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko’rsatishi asoslangan.

Kalit so’zlar: inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari, inklyuziv muhit, individual yondashuv, pedagogik qo’llab-quvvatlash, universal ta’lim dizayni, ijtimoiy-emotsional ta’lim, assistiv texnologiyalar, hamkorlik.

Abstract: This article examines the pedagogical, psychological and organizational aspects of creating an inclusive environment in early childhood education settings. The modern concept of inclusive education aims to ensure equal opportunities for participation, development and learning for all children, including children with special educational needs. The study analyzes major challenges in creating inclusive preschool environments, including insufficient inclusive competencies among teachers, inadequate adaptation of educational and developmental environments, difficulties in implementing individualized approaches, limited cooperation with parents and specialists, and challenges related to children’s social integration. Particular attention is given to innovative approaches such as Universal Design for Learning, individual developmental plans, social-emotional learning, assistive technologies, cooperative play and multidisciplinary collaboration. The article emphasizes the importance of early identification of developmental needs and timely pedagogical support in ensuring children’s participation, well-being and successful transition to subsequent stages of education.

Key words: inclusive education, early childhood education, special educational needs, inclusive environment, individualized approach, pedagogical support, Universal Design for Learning, social-emotional learning, assistive technologies.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические, психологические и организационные аспекты формирования инклюзивной среды в организациях дошкольного образования. Современная концепция инклюзивного образования предполагает обеспечение равных возможностей для участия, развития и обучения всех детей, включая детей с особыми образовательными потребностями. Анализируются основные проблемы формирования инклюзивной среды в дошкольном образовании: недостаточная сформированность инклюзивной компетентности педагогов, недостаточная адаптированность образовательной и развивающей среды, трудности реализации индивидуального подхода, недостаточное взаимодействие с родителями и специалистами, а также проблемы социальной адаптации детей. Особое внимание уделяется инновационным подходам, включая универсальный дизайн обучения, индивидуальные карты развития, социально-эмоциональное обучение, ассистивные технологии, кооперативные игры и междисциплинарное взаимодействие.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, особые образовательные потребности, инклюзивная среда, индивидуальный подход, педагогическая поддержка, универсальный дизайн обучения, социально-эмоциональное обучение, ассистивные технологии.



KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida tenglik, adolat va barcha bolalar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur jarayonda maktabgacha ta'lim alohida ahamiyatga ega. Chunki bolaning shaxsiy, ijtimoiy-emotsional, kommunikativ va kognitiv rivojlanishining muhim asoslari aynan erta bolalik davrida shakllanadi. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanishida qiyinchiliklari yoki nogironligi bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'limda ishtirok etish imkoniyati boshqa bolalarga nisbatan past bo'lib, bunga jismoniy muhitning moslashmaganligi, malakali mutaxassislarining yetishmasligi, stigma va salbiy munosabatlar kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

UNESCO tomonidan ilgari surilayotgan zamonaviy yondashuvlarda ham inklyuziyani maktabgacha ta'limdan boshlash zarurligi ta'kidlanadi. Chunki inklyuziv maktabgacha ta'lim nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning, balki guruhdagi barcha bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, hamkorlik qilishi, farqlarni qabul qilishi va o'zaro hurmat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham maktabgacha ta'limni ommalashtirish va uning sifatini oshirish jarayonlari izchil davom etmoqda. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda maktabgacha ta'lim qamrovi 2017-yildagi 30 foizdan kam ko'rsatkichdan 2025-yilda 75 foizdan yuqori darajaga ko'tarilgan. Bu esa ta'lim xizmatlarining barcha bolalar uchun, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ham sifatli va qulay bo'lishini ta'minlash masalasini yanada dolzarb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv muhitni yaratish faqatgina bolani umumiy guruhga qabul qilish bilan cheklanmasligi kerak. Haqiqiy inklyuziya bolaning ta'lim faoliyatida ishtirok etishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi, o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi va individual rivojlanish sur'atiga mos pedagogik yordam olishi bilan belgilanadi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalaridan biri Universal Design for Learning (UDL) - ta'lim uchun universal dizayn yondashuvidir. CAST tomonidan ishlab chiqilgan UDL modeli ta'lim jarayonini o'quvchilarning turli ehtiyoj va imkoniyatlarini oldindan hisobga olgan holda loyihalashtirishni nazarda tutadi. Model uchta asosiy yo'nalishga - jalb etish, axborotni turli shakllarda taqdim etish hamda harakat va ifodalashning turli imkoniyatlarini yaratishga asoslanadi.

Maktabgacha ta'limda bu yondashuvni bolaning topshiriqni faqat og'zaki emas, balki rasm, predmet, harakat yoki namuna orqali ham qabul qilishi, javobni esa so'z, imo-ishora, rasm tanlash yoki amaliy harakat orqali ifodalashi orqali amalga oshirish mumkin.

Inklyuziv ta'limda ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) elementlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarga his-tuyg'ularni tanish, o'z holatini ifodalash, do'stiga yordam berish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, navbat kutish va hamkorlik qilish kabi ko'nikmalarni o'yinlar orqali o'rgatish mumkin. Bunday faoliyat barcha bolalar uchun foydali bo'lib, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning guruhga ijtimoiy integratsiyasini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, assistiv texnologiyalar inklyuziv ta'lim muhitining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Rasmi kommunikatsiya kartalari, vizual jadvallar, sensor vositalar, audio va interaktiv materiallar ayrim bolalarning faoliyatda mustaqil ishtirokini oshirishi mumkin. UNICEF ham assistiv texnologiyalarning rivojlanishida qiyinchiliklari bo'lgan bolalarning kundalik faoliyat va muloqotdagi ishtirokini kuchaytirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni shakllantirish muammolarini o'rganishda inklyuziv ta'limga oid ilmiy-pedagogik yondashuvlarni nazariy tahlil qilish, mavjud tajribalarni umumlashtirish, qiyosiy tahlil va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotda inklyuziv muhitni shakllantirish ko'p omilli pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Uning samaradorligi pedagog, ota-ona, psixolog, logoped, maxsus pedagog va boshqa mutaxassislarining hamkorligi bilan belgilanadi. Shu asosda inklyuziv muhitni tahlil qilishda pedagoglarning inklyuziv kompetensiyasi, ta'lim muhitining moslashtirilganligi, individual pedagogik yondashuv, bolalarning ijtimoiy-emotsional moslashuvi hamda ota-ona va mutaxassislar bilan tizimli hamkorlik asosiy tahlil yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Inklyuziv muhitni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashda Universal Design for Learning (UDL), ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL), kooperativ o'yin, tengdoshlar ko'magi, assistiv texnologiyalar hamda "pedagog-ota-ona-mutaxassis" hamkorlik modelining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Mazkur yondashuvlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv muhitni shakllantirishning diagnostik-kuzatuv, muhitni moslashtirish, individual pedagogik qo'llab-quvvatlash, kooperativ va ijtimoiy-emotsional faoliyat hamda monitoring va refleksiya bosqichlarini o'z ichiga oluvchi pedagogik model taklif etildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar maktabgacha ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirish jarayonida bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Birinchi muammo - pedagoglarning inklyuziv kompetensiyasi bilan bog'liq. Inklyuziv guruhda faoliyat olib boruvchi tarbiyachi barcha bolalarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi, mashg'ulot mazmunini moslashtirishi, turli kommunikatsiya vositalaridan foydalanishi va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarishi lozim. Biroq amaliyotda pedagogning umumiy pedagogik tayyorgarligi bilan inklyuziv pedagogik kompetensiyasi o'rtasida tafovut kuzatilishi mumkin.

Ikkinchi muammo - ta'lim muhitining yetarli darajada moslashtirilmaganligi. Inklyuziv muhit faqat pandus yoki maxsus jihozlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Guruh xonasidagi mebellarning joylashuvi, yoritish, tovush darajasi, vizual belgilar, o'yinchoqlar, didaktik materiallar va sensor vositalarning mavjudligi ham bolaning faol ishtirokiga ta'sir qiladi.

Uchinchi muammo - individual yondashuvni tashkil etish. Bir guruhda rivojlanish sur'ati, qiziqishi, kommunikativ imkoniyati va o'rganish uslubi turlicha bo'lgan bolalar mavjud bo'ladi. Shu sababli barcha bolalarga aynan bir xil topshiriq va bir xil usulni qo'llash har doim ham samarali natija bermaydi.

To'rtinchi muammo - ijtimoiy-emotsional moslashuv. Ayrim bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilish, navbat kutish, guruhli o'yinda ishtirok etish yoki o'z his-tuyg'ularini ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli inklyuziv guruhda pedagog nafaqat akademik yoki rivojlantiruvchi faoliyatni, balki ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni ham maqsadli rivojlantirishi zarur.

Beshinchi muammo - ota-ona va mutaxassislar bilan tizimli hamkorlikning yetarli emasligi. Bolaning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar pedagog, ota-ona va mutaxassislar o'rtasida muntazam almashilmasa, individual qo'llab-quvvatlashning samaradorligi pasayadi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Birinchi navbatda, Universal Design for Learning (UDL) - ta'lim uchun universal dizayn tamoyillarini maktabgacha ta'limga moslashtirish mumkin. Ushbu yondashuv bolalarning turli ehtiyoj va imkoniyatlarini ta'lim jarayonini loyihalash bosqichidayoq hisobga olish imkonini beradi.

Ikkinchi muhim yechim - individual rivojlanish xaritasini takomillashtirish. Unda bolaning faqat kamchiliklari emas, balki kuchli tomonlari, qiziqishlari, mustaqil bajara oladigan faoliyatlari va rivojlanish dinamikasi ham qayd etilishi kerak. Bunday yondashuv "Bolaga nima yetishmaydi?" degan savoldan "Bolaning mavjud imkoniyatlaridan qanday foydalanish mumkin?" degan savolga o'tishni ta'minlaydi.

Uchinchi yo'nalish - ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) elementlarini inklyuziv guruhlariga joriy etish. Bu bolalarda his-tuyg'ularni anglash va ifodalash, hamkorlik qilish, o'zaro yordam ko'rsatish hamda nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

To'rtinchi yechim - kooperativ o'yin va tengdoshlar ko'magidan foydalanish. Masalan, ikki yoki uch nafar bola birgalikda konstruktor yig'ishi, rasm chizishi, rolli o'yinda ishtirok etishi yoki oddiy muammoni birgalikda hal qilishi mumkin. Bunda alohida ehtiyojli bola "yordamga muhtoj ishtirokchi" sifatida emas, balki umumiy faoliyatning teng huquqli a'zosi sifatida namoyon bo'ladi.

Beshinchi yo'nalish - assistiv texnologiyalardan foydalanish. Rasmi kommunikatsiya kartalari, vizual jadvallar, sensor vositalar, audio va interaktiv materiallardan foydalanish ayrim bolalarning faoliyatdagi mustaqil ishtirokini oshirishga xizmat qiladi.

Oltinchi yo'nalish - "pedagog-ota-ona-mutaxassis" hamkorlik modelini yaratish. Mazkur model doirasida bolaning rivojlanishidagi o'zgarishlar muntazam muhokama qilinib, umumiy maqsad va pedagogik strategiyalar belgilanadi. Bunday hamkorlik oilani inklyuziv jarayonning passiv kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Olib borilgan tahlillar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv muhitni shakllantirishning quyidagi bosqichlardan iborat pedagogik modeli taklif etiladi:

- **1-bosqich - diagnostik-kuzatuv bosqichi.** Bolaning rivojlanish xususiyatlari, qiziqishlari, kommunikativ va ijtimoiy ehtiyojlari kuzatiladi.
- **2-bosqich - muhitni moslashtirish.** Jismoniy, didaktik, kommunikativ va sensor muhit bolaning ehtiyojlariga moslashtiriladi.



- **3-bosqich - individual pedagogik qo'llab-quvvatlash.** Topshiriqlar, o'yinlar, kommunikatsiya vositalari va faoliyat shakllari bolaning individual imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.
- **4-bosqich - kooperativ va ijtimoiy-emotsional faoliyat.** Bolalar o'zaro hamkorlik, muloqot, yordam va birgalikdagi muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi.
- **5-bosqich - monitoring va refleksiya.** Bolaning ishtiroki, mustaqilligi, kommunikativ faolligi va ijtimoiy moslashuvdagi o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Mazkur modelning asosiy xususiyati shundaki, inklyuziya bolaning mavjud muhitga moslashishini kutmaydi; aksincha, ta'lim muhiti bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtiriladi. Bu UDL yondashuvining asosiy g'oyalari ham mos keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Inklyuziyani faqat alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish bilan cheklash yetarli emas. Muhimi, bolaning ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi, o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi va individual ehtiyojlariga mos pedagogik yordam olishini ta'minlashdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv muhitning samaradorligi pedagogning kasbiy kompetensiyasi, ta'lim muhitining moslashuvchanligi, individual yondashuv, ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash, ota-ona va mutaxassislar hamkorligi hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bevosita bog'liq. UNESCO va UNICEF materiallarida ham erta yoshdan boshlab inklyuzivlikni ta'minlash, rivojlanishdagi ehtiyojlarni erta aniqlash va oilaga yo'naltirilgan xizmatlarni rivojlantirish muhimligi qayd etiladi.

Shu asosda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "erta aniqlash individual qo'llab-quvvatlash moslashtirilgan muhit ijtimoiy-emotsional rivojlanish hamkorlik monitoring" tamoyiliga asoslangan yaxlit inklyuziv modelni joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki barcha bolalarda bag'rikenglik, hamkorlik, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat kabi muhim kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
3. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi va metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Xasanboyeva O.U., Boboyeva D.R., Zohirova Sh.R. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: Ilm ziyo, 2012.
5. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2008.
6. Right from the start: Build inclusive societies through inclusive early childhood education. Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO, 2021.
7. UNICEF Uzbekistan. Inclusive education. UNICEF Uzbekistan.
8. UNICEF Uzbekistan. Early childhood education. UNICEF Uzbekistan.
9. Booth, T., Ainscow, M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. 3rd ed. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education, 2011.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.